

**2022-2026-YILLARDA O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA  
MADANIY MEROS MASALASIGA E'TIBOR VA JAMIYATIMIZDA AKS  
ETISH JARAYONLARI**

*Nazarova Dilnoza Eraliyevna*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).*

*Abdumutalova Humora Doniyor qizi*

*Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi  
(Ma'naviyat asoslari) 1-kurs magistri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ma'naviyatsizlik va g'oyasizlikning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, xususan korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning oldini olish zarurati yoritilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga berilgan e'tibor, Qoraqalpoq madaniyati va san'atini rivojlantirish hamda uni jahon miqyosida targ'ib qilish masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, fenomen, Sahihi Buxoriy, Madaniy turizm, "Sharq Renessansi", "Namangan Afrosiyobi", Usturlobiy, "Toshkent dengizi", "Sahrodagi Luvr".

**Abstract:** This article discusses the negative impact of apathy and lack of ideas on social life, in particular the need to prevent such vices as corruption, crime and immorality. It also analyzes the attention paid to spiritual and educational reforms in the New Uzbekistan Development Strategy, the development of Karakalpak culture and art and its promotion on a global scale.

**Keywords:** New Uzbekistan, phenomenon, Sahih Bukhari, Cultural tourism, "Eastern Renaissance", "Namangan Afrosiyobi", Usturlobiy, "Tashkent Sea", "Louvre in the Desert".

**Аннотация:** В данной статье рассматривается негативное влияние апатии и отсутствия идей на общественную жизнь, в частности, необходимость предотвращения таких пороков, как коррупция, преступность и безнравственность. Также анализируется внимание, уделяемое духовным и образовательным реформам в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана, развитию каракалпакской культуры и искусства и их продвижению в глобальном масштабе.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, феномен, Сахих Бухари, культурный туризм, «Восточный Ренессанс», «Наманган Афросиёби», Устурлобий, «Ташкентское море», «Лувр в пустыне».

**Taraqqiyot strategiyasi madaniy merosga doir maqsadlardan quyidagi sohalari bilan ushbu maqolada tanishamiz.**

- Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari g’oyasini keng targ’ib qilish orqali dunyoqarash va bunyodkorlikni umummiy harakatga aylantirish;
- Allomalar ilmiy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish;
- Millatlaro munosabatlar va diniy bag’rikenglik muhitni yanada mustahkamlash;
- O’zbekiston tarixini o’rganish va tatbiq etish;

Yer yuzidagi har qaysi xalq yoki davlat rivojlanish bosqichlarida ta’rif etish uchun so’zlarga, atama va tushunchalarga ehtiyoj mavjud. Har qanday tushuncha yoki atamalar o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. Ularning ham o’ziga xos shakllanish jarayoni bosqich va davrlari bor. Tushuncha va atalar zamonlar o’zgargani sayin, o’z qiymatini oz bo’lsada sayqallashga zamon darajasiga moslashishga muhtojlik sezadi. Bu kabi atama va tushunchalar o’z davriga xoslik, tushunishga oson, keng qo’llay olishlik, nutqni jilvalantirishga katta ta’sir etish kuchiga egaligi bilan bugungi zamonimiz uchun ahamiyatlidir.

Shu o’rinda, Yangi O’zbekiston fenomeni bundan mustasno emas. Fenomenlarning ham o’ziga xos jihatlari mavjud bo’lib, ulardan eng asosiysi, har qanday fenomen o’zida ma’no yoki g’oyani aks ettirishi yoki olg’a surishi shart. Aks holda u fenomenlik xususiyatini butkul yo’qotadi. Prezidentimiz ham aynan “Yangi” degan so’zga alohida e’tibor qaratdi. Qadimgi Oltoy tillari oilasiga mansub turkey xalqlarning ma’naviy me’rosida “yan” va “in” tushunchalari muhim o’rin tutadi. “In” susayish, ortga arab ish tutish, o’zligini namoyon etishdan tiyilish, “Oz inida bo’lish”ni, “yan” esa yangilanish qayta bunyod bo’lish, o’zligini namoyon etish, o’zib ketish ma’nolarini ifoda etadi.[1] Huddi shunday, Yangi O’zbekiston fenomeni ham o’zida “mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish, Uchichi renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch go’yasini ifoda etadi.

O’zbek xalqi boy tarixi va madaniyatiga ega yurtidir. Uni yanada rivojlantirish avvalo, mamakat e’tiboriga, xalqning yordami bilan amalga oshiriladi. o’z O’z madaniyatini, tarixini saqlash boyitish va keying avlodga qoldirishga bor kuchini safarbar etadigan insonlar yurtning kelajagi buyuk va ishonchli ekanidan dalolatdir. Yangi O’zbekiston ham rivojlashishning yangi bosqichi taraqqiyot strategiyasiga tarixiy ma’naviy omil bo’lgan, eng katta boyligimiz - xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellectual salohiyati mustahkam tayanch va suyanch bo’ladi.

Bundan tashqari Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asarining mohiyati Buxoriyning meroslarini asrab –avaylash, o’rganish yosh avlodga yetkazib berish

maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy –tadqiqot markazi, Surxodaryo viloyatida Imom Termiziy nomidagi , Samarqandda Imom Motrudiy nomidagi ilmiy-marifiy tadqiqot markazlari faoliyat boshladi..

O'zbekistonda hududida joylashgan mavjud me'moriy yodgorliklarni asrash borasida xalqaro tashkilotlar bilan keng ko'lamli hamkorlik ishlari kengaytirilishi davom ettirildi. "Samarqanddagi Xalqaro turizm universitetida "Madaniy turizm" kafedrasini ochildi, o'zaro hamkorlikda Toshkent shahrida "Axborot texnologiyalari – madaniy merosni saqlash yo'lida" mavzuida Osiyo forumi o'tkazildi." [2] Madaniyat, ta'lim, innovatsiyalar, kutubxona va muzey ishi sohasidagi qonunlarni ishlab chiqishda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Yurtimiz zaminida saqlanib kelayotgan obidalar ,tarixiy ma'lumotlar, nodir yodgorliklar bizni jahon dunyo xalqlarining madaniyati bilan bog'lovchi asosiy ko'prikdir. Mamlakatimizning usbu sohaga e'tibori va Say-harakatlar natijasi o'laroq ko'plab qadimiy madaniyat o'choqlari topilmoqda . Masalan, Arxeologik ishlar natijasida "Namangan Afrosiyobi" nomini olgan Axsikent yodgorligi gavjum ziyoratgoh ochiq osmon ostidagi muzey va tarix darsxonasiga aylangani alohida e'tiborga molik.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, alloma Chag'oniyon ya'ni bugungi Surxondaryo viloyatining Denov shahri hududida X asrda tavallud topgan. Uning yoshlik chog'lari Bag'dodda kechgan, ilmiy faoliyat olib borib , astronomiya sohasida buyuk alloma darajasiga erishgan. Buyuk alloma yulduzlar harakatini kuzatadign asbob –usturlob va boshqa astronomic jihozlarni yasagan va ularni qo'llash bo'yicha shuhrat qozongan. Shu noisdan unga "Usturlobiy" degan nom berilgan.

Turizm- O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri ekani bilan birga jisoniy, madaniy dam va ma'naviy ozuqa olish maskani hamdir. Bu borda Buxoro shahrida eng zamonaviy jihozlangan tarixiy muzey tashkil etish, Abu Ali ibn Sino tug'ulib o'sgan Afshona qishlog'ini turizm shaharchasiga aylantirish ishlari ko'zlangan.

"Shuningdek, Toshkent viloyatining Amirsoy va Chimyon turistik majmualarida, Chorvoq suv ombori va "Toshkent dengizi" atrofida , Ohangaron, Angrendagi tog'li hududlarda qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlari barpo etishga katta miqdordagi investitsiyalar jalb etish" maqsad qilib qo'yilgan. Bunday madaniy maskanlarga e'tibor orqali ham moddiy ham ma'naviy samaraga erishilmoqda. Bu samaradorlik albatta, e'tibor va say- harakatlar natijasidir.

**Ma'naviyat – eng ta'sirchan va qudratli qurolimizdir.**

**Shavkat Mirziyoyev**

Ma'naviyat- insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat- jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy

munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ldi.[3]

Tom ma'noda Ma'naviy-ma'rifiy sohada Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri, "Aygulash" milliy folklore ansambli, Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi O'zbekiston san'atining faxri sanaladi. Shu bilan birga, kelgusida faqat ushbu ishlar bilan cheklanibgina qolmay, qoraqalpoq madaniyati va san'atini, qoraqalpoq tili va adabiyotini rivojlantirishga, uni yurtimiz va jahonda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berilishi belgilandi. Shu maqsadda "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari" ko'p jildlik to'plamini o'zbek tilida nashr qilish ishlari davom ettiriladi. Ayni vaqtda butun dunyoda "Sahrodagi Luvr" degan nom bilan shuhrat qozongan Savitskiy muzeyi bo'yicha AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiyaning yetakchi ilmiya-madaniy muassasalari bilan hamkorlikda maxsus tadqiqotlar amalga oshirilib, chet tillarda kitob va albomlar nashr qilinadi, deya ta'kidladi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib kelmoqda. Bularning barchasi faqatgina yashash emas balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirokchi hamda yurt ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shmoqda. Asosiy qomusimiz Kanstitutsiyada mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.[4]

Hozirda yurtimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar mihum ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Islom dini-avvalo, tinchlikva do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir.[5] Bu oliy haqiqatdir. Islom - azaliy qadryatlarimizni o'zida mujassam etgan dindir.

Bag'rikengli va o'zaro hurmat kabi umuminsoniy qadryatlar borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan taklifi va hujjatning qabul qilingani buning yorqin misoli bo'la oladi.

Bag'rikenglik va boshqa barcha umuminsoniy qadryatlar islom dinida o'z aksini topgan. Shunday ekan, allomalarning Islom ma'naviy merosi bizning jamiyatimiz hamisha tinchlik, osudalik, o'zaro hurmat va totuvlik kabi tamoyillarni o'zida qo'llab, rivojlanib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Салимов Оқил, Янги Ўзбекистон давлати. Матн/ -Т.: "Маънавият", 2023. – Б.83.

2. Davronova U. A Sharq mutafakkirlarining ijodida loqaydlik va befarqlikka oid qarashlar. Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. Hosted online from Moscow, Russia. 11th December, 2023.-P.105.
3. Dadamirzayeva G.A Tarix fanida innovatsiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar./o'quv qo'llanma. –Namangan: 2019. -B.51.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston, 2023. –B.9.
5. Mirziyoyev Sh.M Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.2 nashr. - Toshkent: "O'zbekiston",2023. -B. 283.
6. <https://society.uz/ru/new-uzbekistan>
7. <https://lex.uz>
8. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/ozbekistonning-madaniy-merosi-yangi-renessans-poydevori>